

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “TONG ASLO
OTMA.YOMG’IR YOG’DI MO’L...” SHE’RI TAHLILI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyot tarixiga nazar solib qarar ekanmiz, inson yaralgandan buyon necha asrlar o‘tti, biroq ruhiy iztirob, yolg‘izlik, hayot murakkabliklari va umid masalasi har doim muhokama markazida bo‘lib kelmoqda. Insonning ichki olami, uning o‘zini o‘rab turgan tashqi dunyo bilan munosabati nafaqat shaxsiy tajribaga, balki umumiy falsafiy masala sifatida o‘rganilgan. Hayot davom etar ekan, har bir inson o‘zini vaqti-vaqti bilan yolg‘iz, tushkunlikka tushib qolgan, jamiyat hayotidan chetlashib qolgan kabi his qiladi. Shu paytlarda tabiat, vaqt va atrof-muhitning oddiy hodisalari inson qalbida kuchli timsolni ifodalab keladi. XX asr o‘zbek adabiyotida xuddi shunday badiiy an‘analar asosida ijod qilgan, bu yo‘lda o‘z uslubini yarata olgan chuqur badiiy tafakkur sohibi bu Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. Faynberg she‘riyatida inson yuragining nozik kechinmalari, yolg‘izlik, ichki iztirob va umid o‘rtasidagi ziddiyatlar markaziy mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Uning badiiy olami tabiat va tashqi manzaralarini inson ruhiy holati bilan hamohanglashtirgan holatda teran falsafiy mohiyatni yaratadi. Faynberg uchun o‘zi ijodida qo‘llagan yomg‘ir, shamol, yo‘l, tun va tong singari tasviriy vositalar shunchaki voqelikni tasnifovchi qurollar emas, balki inson ruhiyatining ramziy tasviri hisoblanadi. Mana shunday voqealar vositasida shoir inson qalbida to‘xtov nimaligini bilmay davom etib kelayotgan kurashlarni, jamiyatga nisbatan munosabatini va o‘z qadrini anglab yetish jarayonini ifodalaydi. Har bir tabiat hodisasi, har bir yorug‘lik yoki soya Faynberg ijodiyotida inson qalbining nozik qatlamlariga ishora qiladi, uning ichki dunyosidagi yolg‘izlik va iztirobni kuchaytiradi, shu bilan bir qatorda umid va bardoshlik bo‘lishlikka

da'vat etadi. Faynberg ijodida inson yolg'izligi va bunga bo'lgan jamiyatdagi beparvolik aksariyat hollarda bir-biriga bog'langan mavzu sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, shoir qahramonning ichki iroda va sabr asnosida o'zini anglab yetish jarayonini asar falsafiy markazi sifatida tasvirlab beradi. U o'quvchini faqat tashqi voqealarga emas, insonni chuqur ruhiy qatlamlariga ham e'tibor qaratishga chorlaydi. Shu boisdan ham Aleksandr Faynberg ijodi inson ruhiy kechinmalarini, hayotiy ziddiyatlarini va umid falsafasini o'rganish uchun eng yaxshi manba hisoblanadi. Mazkur maqola Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodiyotining mana shunday noyob jihatlarini o'zida aks ettirgan "Tong aslo otma. Yomg'ir yog'di mo'l..." misrlari bilan boshlanuvchi she'ri tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: she'riyat, inson ruhiyati, yolg'izlik, ichki iztirob, umid, tabiat obrazlari, shamol va yomg'ir, hayot falsafasi, jamiyat va beparvolik, iroda va sabr, ramziy ma'no, qadr anglash, ruhiy kechinmalar, badiiy tafakkur.

Abstract: Looking at the history of literature, we can see that centuries have passed since the creation of man, but the issues of spiritual suffering, loneliness, life's complexities and hope have always been at the center of discussion. The inner world of man, his relationship with the external world surrounding him, have been studied not only as a matter of personal experience, but also as a general philosophical issue. As life goes on, every person from time to time feels lonely, depressed, and excluded from the life of society. At such times, ordinary phenomena of nature, time and the environment have a strong image in the human soul. In 20th-century Uzbek literature, a person with a deep artistic mindset who created on the basis of similar artistic traditions and created his own style in this way is Alexander Arkadyevich Feinberg. In Feinberg's poetry, the subtle feelings of the human heart, the contradictions between loneliness, inner suffering and hope are reflected as central themes. His artistic world creates a deep philosophical essence by harmonizing nature and external landscapes with the human psyche. For Feinberg, the figurative means he uses in his work, such as rain, wind, road, night and dawn, are not just tools for classifying reality, but rather symbolic images of the human psyche. Through such events, the poet expresses the ongoing struggles in the human soul, his attitude

towards society, and the process of realizing his own worth. Every natural phenomenon, every light or shadow in Feinberg's work points to the subtle layers of the human soul, enhances the loneliness and suffering in his inner world, and at the same time calls for hope and tolerance. In Feinberg's work, human loneliness and the indifference of society to it are often interpreted as interconnected themes. At the same time, the poet describes the process of the hero's self-realization through inner will and patience as the philosophical center of the work. He invites the reader to pay attention not only to external events, but also to the deep spiritual layers of a person. Therefore, the work of Alexander Feinberg is considered the best source for studying human spiritual experiences, life conflicts, and the philosophy of hope. This article is devoted to the analysis of the poem "Don't break the dawn. The rain fell abundantly...", which reflects such unique aspects of Alexander Arkadyevich Feinberg's work.

Key words: poetry, human psyche, loneliness, inner suffering, hope, images of nature, wind and rain, philosophy of life, society and negligence, will and patience, symbolic meaning, appreciation, spiritual experiences, artistic thinking.

Аннотация: Оглядываясь на историю литературы, мы видим, что с момента сотворения человека прошли столетия, но вопросы духовных страданий, одиночества, сложностей жизни и надежды всегда оставались в центре внимания. Внутренний мир человека, его взаимоотношения с окружающим миром, изучались не только как вопрос личного опыта, но и как общефилософская проблема. С течением жизни каждый человек время от времени чувствует себя одиноким, подавленным и отчужденным от жизни общества. В такие моменты обыденные явления природы, времени и окружающей среды находят сильный отпечаток в человеческой душе. В узбекской литературе XX века человеком с глубоким художественным мировоззрением, творившим на основе схожих художественных традиций и создавшим таким образом свой собственный стиль, является Александр Аркадьевич Файнберг. В поэзии Файнберга центральными темами отражены тонкие чувства человеческого сердца, противоречия между одиночеством, внутренними

страданиями и надеждой. Его художественный мир создает глубокую философскую сущность, гармонизируя природу и внешние пейзажи с человеческой психикой. Для Файнберга образные средства, используемые в его творчестве, такие как дождь, ветер, дорога, ночь и рассвет, — это не просто инструменты классификации реальности, а скорее символические образы человеческой психики. Через такие события поэт выражает непрекращающуюся борьбу человеческой души, свое отношение к обществу и процесс осознания собственной ценности. Каждое природное явление, каждый свет или тень в творчестве Файнберга указывают на тонкие слои человеческой души, усиливают одиночество и страдание в его внутреннем мире и одновременно призывают к надежде и терпимости. В творчестве Файнберга человеческое одиночество и безразличие общества к нему часто интерпретируются как взаимосвязанные темы. В то же время поэт описывает процесс самореализации героя через внутреннюю волю и терпение как философский центр произведения. Он призывает читателя обратить внимание не только на внешние события, но и на глубокие духовные слои личности. Поэтому творчество Александра Файнберга считается лучшим источником для изучения духовных переживаний человека, жизненных конфликтов и философии надежды. Данная статья посвящена анализу стихотворения «Не нарушай рассвет. Дождь лил обильно...», отражающего такие уникальные аспекты творчества Александра Аркадьевича Файнберга.

Ключевые слова: поэзия, человеческая психика, одиночество, внутренние страдания, надежда, образы природы, ветер и дождь, философия жизни, общество и небрежность, воля и терпение, символическое значение, благодарность, духовные переживания, художественное мышление.

Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan sanaladi. Uning asarlari o'quvchiga inson qalbining murakkab qatlamlarini badiiy vositalar orqali anglash, ichki iztirob va umidni chuqurroq his qilish imkonini beradi. Faynberg she'riyatida tabiat, jamiyat va inson ruhiyati o'zaro uyg'unlikni hosil qiladi. Bu esa

kitobxon uchun falsafiy va ma'naviy boylikni taqdim etadi."Tong aslo otma.Yomg'ir yog'di mo'l..." misrasi bilan boshlanuvchi she'r ham shoirning insoniy iztirob,e'tiborsizlik va umid o'rtasidagi ichki kurashni tasvirlashdagi mahoratini yaqqol ko'rsatib beradigan asarlardandir.Ushbu asarda oddiy manzara-yomg'irli yo'lda qolib ketgan yolg'iz inson holati- butun bir hayotiy falsafaga aylanadi.She'rda tashqi sovuq va namlik bilan birga ruhiy sovuqlik,jamiyatning beparvoligi va insonning o'z qadrini anglashga bo'lgan intilishi va xohishi tasvirlanadi.

Tong aslo otmadi. Yomg'ir yog'di mo'l,

Yo'ldan mashinalar o'tadi g'iz-g'iz.

– Olib ketinglar, – deb ko'taraman qo'l.

– Hoy, haydovchi, to'xta, axir, men yolg'iz!

– Axir kimdir... To'xtang... Insonman men ham

O'rmonda sargardon qolib ketmay, hoy!.. –

Shilta g'ildiraklar beparvo, beg'am,

Yuzimga sachratib ketar balchiq, loy.

Dod dedim! Shamollab ahvolim zabun,

So'kinib yubordim, kechirsin Xudo.

Men hech kimga kerak bo'lmasam bugun,

Erta yo'lda zarur bo'laman juda.

Chiroqlar nuridan qamashar ko'zim,

Mashinalar gudok bosib yeladi.

Shamol yuragimga uradi o'zin,

Jala yuragimga shoshib keladi.

Boshimda sovuq ter, egnim jiqqa ho‘l,

Yomg‘ir tinmay yog‘ar goh qiya, goh tik.

Mashinalar yelib o‘tayotgan yo‘l –

Taqdir peshonamga bitilgan bitik.

Tong aslo otmadi. Yomg‘ir bo‘ldi ko‘l.

She‘r qahramoni yomg‘ir yog‘ib turgan bir vaziyatda o‘zi yo‘lda yolg‘iz qolib ketadi. U mashinalarga qo‘l ko‘tarib, to‘xtab yordam berishlarini so‘raydi, inson ekanini eslatadi. Bu oddiygina ko‘rinishi mumkin bo‘lgan hayotiy vaziyat zamirida chuqur ma‘no-mazmun yashirin: garchi inson jamiyatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida unda yashasa ham, ba‘zan shunday holatlar yuz beradiki, bu holat uni hayotda mutlaqo yolg‘iz insondek his etishga majbur qiladi. Atrofdagi hamma o‘z tashvishi bilan shoshib yuradi. Ular band va atrofidagilarga tamoman befarq. ”Shilta g‘ildirak beparvo, beg‘am” misrasidan jamiyatning bepisand munosabatini anglashimiz mumkin.

Balchiq va loyning yuzga sachrashi sahnasi shunchaki jismoniy noqulaylikning tasviriy ifodasi emas. Bu inson qadrining poymol bo‘lishi, uning sha‘ni va tuyg‘ulariga nisbatan bildirilgan e‘tiborsizlikni ifodalovchi timsoldir. Shoir shu bilan zamonaviy insonlarga xos bo‘lgan muammolarni ko‘rsatib o‘tadi: odamlari, shu qadar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan mehr kam; to‘xtovsiz amalga oshirilayotgan harakat bor, lekin bir soniyaga to‘xtab boshqalarni eshitish yo‘q.

She‘r davom etar ekan, yomg‘ir tinim bilmasdan yog‘averadi, shamol esib, yurakka uriladi, chiroqlar yaltirab ko‘zni qamashtiradi. Bu keltirilgan obrazlar iztirobni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Tabiat va ruhiyat o‘rtasida uyg‘unlik paydo bo‘ladi: tashqarida shamol uvillab tursa, ichkarida yurak larzaga keladi; tashqarida yomg‘ir yog‘sa, ko‘z yosh to‘kiladi.

“Tong aslo otmadi” iborasi ham aslida ramziy ma’noni ifodalash uchun qo’llanilgan, Tong –umid, yangilanish, nur ramzi sanaladi. Uning otmasligi esa vaqtincha davom etadigan umidsizlikni, ruhiy zulmatni bildiradi. Qahramon hayotida hozircha yorug’lik yo’qdek tuyuladi. Biroq, she’rda muloq tushkunlikka tushib qolish ohangini beradigan element ishlatilmagan. Aksincha, ichki qarshilik, yashashga bo’lgan kuchli xohish bor.

She’rning eng muhim nuqtalaridan biri quyidagi fikrda mujassamlashtirilgan: ”Men hech kimga kerak bo’lmasam bugun, Erta yo’lda zarur bo’laman juda.” Bu satrlarda inson psixologiyasida yuz beradigan o’zini anglash va qadrlash jarayoni aks ettirilgan. Hozida bo’lib turgan beparvolik vaqtincha. Inson bugun e’tiborda chetda qolib ketishi mumkin, ammo barber u ertaga kimdir uchun muhim shaxsga aylanadi. Bu mulohaza esa ,o’z navbatida, ertangi kunga bo’lgan umidni uyg’otadi. Shoir bu bilan insonni tushkunlik botqog’iga cho’kib qolmasdan, oldinga olg’a qadam bosishga undaydi.

Bu yerdagi “yo’l” obrazi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yo’l bu-hayot timsoli. Mashinalar yelib o’tib ketayotgan yo’l esa taqdir bitigi timsolidir. Har kim o’z yo’lida, o’ziga xos tezlikda harakatlanib boraveradi. Kimdir oldinga o’tib ketsa, kimdir ortda qolib ketadi. Lekin birgini shu bilan hayot to’xtab qolmaydi.

“Mashinalar yelib o’tayotgan yo’l-Taqdir peshonamga bitilgan bitik.” Misrasi she’rda ilgari surilayotgan falsafiy fikrlar chuqqisi desak ham bo’ladi. Inson ba’zida o’zini taqdir oqimiga tashlab qo’yilgandek his qiladi. Ammo aynan mana shu holatda uning ichki irodasi nimalarga qodir ekanligi ma’lum bo’ladi. Qahramon yordam so’raydi, kurashadi. Uning sukut saqlamay harakatda davom etishi undagi taslim bo’lmaslik istagini ko’rsatadi.

Shoir insonni tasvirlar ekan uni faol mavjudotdek ko’rsatadi. U sovuqdan, shamoldan, o’ziga bo’lgan e’tiborsizlikdan aziyat chekadi. Biroq u baribir yashashni davom etaveradi, manziliga yetib olish, kimgadir kerak bo’lish haqidagi xohishidan aslo kechmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich asarlari inson ruhining, qalbining eng chuqur qatlamlarini o'quvchiga ochib berishga qaratilgan. "Tong aslo otmadi. Yomg'ir yog'di mo'l..." she'ri shoirning bu sohadagi badiiy mahoratidan dalolat berib turadi. Shoirning mahorati shundaki, u oddiygina bir voqea vositasida katta bir insoniy haqiqatni yoritib beradi: insonni bugun yolg'iz qoldirish mumkin, lekin bu bilan uning qadri yo'q bo'lib qolmaydi. Har bir inson bir kun kelib zaruratga aylanadi. Har bir qalbining o'z tongi bor. Ushbu she'r kitobxonni o'z qadrini anglab yetishga, jamiyat beparvoligiga qaramasdan qalbidagi insoniylikni saqlab qolishga chaqiradi. Shu boisdan ham asar nafaqat badiiy jihatdan, balki ma-naviy-falsafiy jihatdan ham yuksak qiymatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xtasinov A. Lirik qahramon psixologiyasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
2. Ruzikulova M. She'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg'unligi. — "Adabiyot nazariyasi jurnali", №3, 2022.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
4. Aleksandr Faynberg. — T.: Ijod nashr, 2021.
5. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
6. <https://arboblarni.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich>